

MIZANSSENA- REJISSORNING TILI

Qazaqbaeva Ramuza

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

“Rejissura san’ati” kafedrasida oqituvchisi

Bozorboyeva Aziza

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

*“Rejissura san’ati” kafedrasida “Estrada va ommaviy tomoshalar
rejissorligi” 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: mizanssena tushunchaning kelib chiqishi, turlari, rejissorlik san’atidagi o‘rni.

Kalit so‘zlar: mizansahna, aktyor, rejissor, sahna, asar, rassom, obraz, ijod, spektakl, ijod, ruhiy chiziq, plastika, dramaturg, xatti-harakat, oliy maqsad, Mannon Uyg‘ur, Stanislavskiy, dekoratsiya, rol.

MISE-EN-SCENE IS THE DIRECTOR'S LANGUAGE

Abstract: the origin of the concept of mise-en-scène, its types, its place in the art of directing.

Key words: mise-en-scène, actor, director, stage, work, artist, image, creation, performance, creativity, mental line, plasticity, dramatist, behavior, higher purpose, Mannon Uyghur, Stanislavsky, decoration, role.

Teatr san’atida rejissorning o‘rni to‘g‘risidagi savollar ko‘pchilikni qiynab kelgan. Aktyor o‘z rolini ijro qilsa, rassom dekoratsiya chizamsini chizsa, grimyor grimini qilsa, kostyumer roldan kelib chiqib obraz kostyumini tiksa rejissor nima ish qiladi? Rejissor- mizanssena ixtiro qiladi.

Mizanssena (fransuzcha mise en scene- sahnada joylashish)-spektakl davomida (muayyan vaqtda) sahnada aktyorlarni joylashtirish, harakatlantirish va o‘zgartirish tartibi. Mizanssena voqea ishtirokchilari harakatlarini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni va asarning g‘oyaviy-badiiy yechimi hal qilishda muhim vosita hisoblanadi. Mizanssena rejissor tomonidan to‘g‘ri hal etilsa, spektaklda uyg‘unlik, yaxlitlik hosil bo‘ladi. Mizansahna (mizanssena) bu sahnaviy makon, zamon, muhitda dekoratsiya va aktyorlar joylashuvidir.

Mizansahna qanday bo‘lishi kerak? Ijroning yuzakiligi yoki chuqurligi rejissorning aktyor bilan sayoz yoki chuqur ruhiy chiziqlar topganligining natijasiga bog‘liq. Ichki organikaning ishdan chiqishi-aktyor plastikasidan notog‘ri foydalanishi tufayli yoki rejissorning noaniq ko‘rsatmasini bajarish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yoki aksincha-bir vaziyatda sahna voqealarini harakatga keltiruvchi chuqur va aniq tahlil, berilgan rol inson ruhiyatining hayotiylikiga bog‘liq bo‘lsa, boshqa bir holatda

taklif etilgan mizansahnaning qat'iy chegaralanishi va shu chegaralar orasida aktyorning ijodiy imkoniyatlarini to'laqonli namoyish eta olishiga bog'liqdir. Yaxshi yoki yomon sahnani belgilovchi mezonlarni qanday aniqlash mumkin? Buning uchun misollarga murojaat qilaylik. Ko'z oldimizda "A" spektakldan olingan "B" mizansahna. Uni "V" yozgan, "D" sahnalashtirgan, "E" rassom. Xo'sh bunday mizansahnaning yaxshi-yomonligini bildiruvchi sifatlar nimalarga bog'liq bo'lishi mumkin? Ularning asosiylari nimalardan iborat? To'g'ri, musiqada tovushlarning hamohangligi, tasviriy san'atda bo'yoqlarning uygu'nligini har kim o'zicha tushunishi mumkin bo'lganidek, tirik odamlar orqali tasvirlanadigan mizansahnanani ham har kim o'zicha baholashi mumkin. Shunga qaramay har bir narsaning ijobiy va salbiy tomonlari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Har qanday mizansahnaning to'g'riligini belgilovchi omil bu birinchi navbatda, uning hayot haqiqatiga monandligidir. Ikkinchidan mizansahnaning harakatchanligi, faolligi va ifodaviyligi. Ba'zan rejissor aktyorga qarab: "Harakat qiling, harakat kam bo'lyapti, yana qanday harakat qilishni o'ylab toping, hozir turib qolyapsiz", deydi. Harakat qilish uchun aktyorga mizansahna berish kerak. Berilganda ham u shunday bo'lishi kerakki, unda aktyor harakat qilmasdan tura olmasin. Ya'ni uni o'z-o'zidan harakatga soladigan kuch bo'lishi lozim. Mizansahnaning o'zida har bir ishtirokchi uchun alohida jismoniy harakatlarni chizig'i aniq belgilab qo'yilgan bo'lmog'i darkor. Xo'sh ana shu ko'rinmas prujinani qanday qilib mizansahna ichiga sig'dirish, joylashtirish mumkin?

Birinchi navbatda, ortiqcha harakatga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Sahnadagi eng yaxshi harakat-kamroq harakat qilishdir. Tajriba tariqasida quloqlab shapaloq urishning o'rniga keskin tarsaki urib ko'ring. Besh qadam yurishning o'rniga ikki qadamda maqsadni amalga oshirib ko'ringchi, shu zahoti mizansahnaning o'zgarganini, tashqaridan chiroyli ko'rinishga ega bo'lganligini sezasiz. Sahnadagi har bir o'rinsiz xatti-harakat, qadam tashlash, qo'l siltash ortiqchaligini tushunib olmog'imiz darkor. Bunday ortiqchalik spektakl shiddatini susaytiradi. Tomoshabin ko'z o'ngida bajarilishi kerak bo'lgan eng kichik jismoniy va ruhiy harakat qahramonning o'ta zarur ichki ehtiyojini qondirishga xizmat qilishi shart. Ichki ehtiyoj aktyorlarni yondirishi, quvvat berishi, harakatga chorlashi shart. Mana shu harakat qilish ishtiyoqi aktyorni butun spektakl davomida tinch qo'ymasligi kerak. Aks xolda soxta erkinlik soxta harakatlarga sababchi bo'ladi. Ko'pchilik aktyorlar sahnada qancha ko'p o'tirib-tursa, bir holatdan boshqa bir holatga o'tsa, tez-tez yurib tursa mizansahna shunchalik qiziq va haqqoniy bo'ladi, deb o'ylashadi. Hayotda esa holatlar tez-tez o'zgarmaydiku! Ko'pincha bir joyda ko'p o'tirib qolinadi. Yoki tik turiladi. Sharoit o'zgarmaguncha holat ham o'zgarmaydi. Sahnada esa hayotdagiga qaraganda kamroq harakatlanish kerak. Chunki, sahnadagi har bir xatti-harakat tasodiflardan tozalanishi, arzimagan harakatlardan holi bo'lishi kerak. Aks xolda harakatning qiymati tushib ketadi.

Yana bir muhim narsa. Sahnadagi xoh katta, xoh kichik bo'lsin har bir harakat ma'lum to'siqni yengib o'tish uchun xizmat qilishi shart. Har bir harakatni amalga oshirishdagi murakkablik, jismoniy to'siqlarni oshib o'tish jarayoni aktyor harakatini faollashtiradi, mizansahna suratini oshiradi. Sahnadagi harakat maydonini cheklab qo'yish ham harakatning shiddatkorligini oshiradi. Qahramon biror jasorat ko'rsatish uchun jon-jahdi bilan harakat qiladi-yu, ammo uni amalga oshirish imkoniyatlari chegaralanib qo'yilganidan o'zini xuddi qafasdagi yo'lbarsdek his qiladi. Xatti-harakatning keskin o'zgarishi ham mizansahnaga jon bag'ishlaydi. Teatr san'atidan keskin burulish va o'zgarishlarni olib qo'yilsa, uning ta'sir kuchi yo'qoladi. Haqiqiy ijodkorni ehtirosiga qarab baholaydilar. Atrofimizni qurshab turgan muhitga nisbatan faol munosabat, telbalarcha sevish, ich-ichidan yomon ko'rib qolish keskin qaror va harakatlar sari yetaklaydi. Sahna kompozitsiyasining barcha qiziqarli tomonlarini birma-bir sanab o'tishning imkoni yo'q. Lekin har bir mizansahna hikmatli so'z kabi ta'sirchan bo'lishi zarur, ya'ni har bir harakatning nozik hikmatini topa bilish rejissor qobiliyatining mezoni hisoblanadi. Teatr san'atining zamonaviy ko'rinishi tomoshabinni har soniya hayratga sola bilishdan iborat. Mizansahnalarning to'g'ri topilishi bo'lajak spektakl uchun nihoyatda muhimdir. Mizansahnadan ko'zlangan maqsad- ishtirokchilarning o'zaro ichki munosabat va harakatlarini jismoniy xatti-harakatlar orqali ifodalashdir. Ishtirokchilarning o'zaro munosabatlari, mizansahnalar orqali amalga oshiriladigan uzluksiz davom etadigan, bir-biri bilan o'rin almashadigan jismoniy xatti-harakatlari spektakl mohiyatini tashkil etadi. Rejissorning vazifasi yorqin, ta'sirchan ifodali mizansahnalar yaratishdan iborat. Spektaklning janri va shakli faqat mizansahna xususiyatlari orqali aks ettiriladi. Bo'lajak spektaklning mizansahnalari avvaldan loyihalashtirilishi kerakmi yoki repititsiya jarayonida ya'ni aktyorlar bilan ishlash jarayonida tug'ilishi kerakmi?

Atoqli rejissorlar tajribasidan ma'lumki, ular ijodiy hayotlarining dastlabki bosqichlarida spektakl mizansahnalarini mayda-chuydasigacha yozib chiqqanlar. Hatto qahramonlarning qanday turib, qanday gapirishlarigacha, qayerda kulib, qayerda jilmayishi-yu, qayerda o'tirib-turishigacha qog'ozga tushurib, so'ngra repititsiya boshlaganlar. Keyinchalik yillar o'tib, tajribaning orta borishi bilan ko'proq sahnada improvizatsiya-badiha orqali qiziq, ma'noli, maqsadli mizansahnalar yaratildi. Shuning uchun yetarli tajribaga ega bo'lmagan rejissorlar bo'lajak spektaklning mizansahnalari, jismoniy xatti-harakatlar yo'nalishi, ommaviy va alohida muhim ko'rinishlarda aks ettirilishi lozim bo'lgan vaziyatlardagi holat va harakatlar loyihasini avvaldan puxta o'ylab ishlab chiqishlari kerak. Ayni shunday ish vaqtida rejissor mizansahnalarni ko'z oldiga keltirishi, qahramonlar o'rtasidagi to'qnashuvlarni hayolan jismoniy harakatlarda ko'rishi aniq va ta'sirli mizansahnalar yaratishga yordam beradi. Ya'ni rejissor xuddi haykaltarosh kabi spektakl qahramonlarining holati, shaklini ko'z oldiga keltirishi bilan birgalikda aktyor sifatida ularning ichki

harakati, kayfiyati va jismoniy harakatini his eta bilishi zarur. Aktyorning sahnada yurish-turishlari, qarama-qarshiliklarga mos xatti-harakatlari, sahnaviy hamrohga nisbatan, sahnada joylashgan jihozlar (masalan, dekoratsiya) ga nisbatan xatti-harakatlar marshruti va asardagi g'oyaning ochilishi uchun qilinadigan barcha xatti-harakatlar mizanssenalar qurilishida namoyon bo'ladi.

Ko'pincha havaskorlik darajasidagi va professional darajadagi rejissor degan iboralarni eshitib qolamiz. Xo'sh, bu iboralarni qanday tushunmoq kerak? Bu ikki turdagi rejissorni bir-biridan farqi nimada? Birinchi navbatda, professional darajadagi rejissorning spektaklida tasodifiylik yani tasodifiy yurish-turish, kirib-chiqish, tasodifiy musiqa, tasodifiy dekoratsiyalar bo'lmaydi. Sahnadagi har bir qadam, musiqa, buyum, ashyo va dekoratsiya ma'lum bir maqsad va g'oyaga bo'ysundirilgan bo'ladi. Havaskor rejissorning spektaklida esa buning aksini ko'rish mumkin. Birinchisi, mizansahna texnikasini yaxshi egallagan bo'lsa, ikkinchisi, bunday tushunchadan mutloq bexabar. Odatda rassom, baxtakor, sozanda kompozitsiya ilmini chuqur o'rganadi. Biroq, mizansahna bo'yicha ilmiy-qo'llanmalar mavjud bo'lmagan va hozir ham yo'q. Chunki rejissorlik kasbining o'zi hali nisbatan juda yosh hisoblanadi. Bu birinchi tarafdin, ikkinchi tarafdin, "mizansahna" deganda qanday ilmlarni egallash kerak, degan savolga, hanuz aniq-to'liq javob topilgan emas. Masalan kechqurun toza havo olish uchun aylanib ko'chaga chiqilsa, ko'plab qiziq holatlarga duch kelish mumkin. Deylik, bir uyning derazasidan kitob varaqlab turgan qizni ko'ramiz. U bizga yonboshi bilan turib nimadir qidirmoqda. Qidirgan narsasini topa olmadi. Kitobni qo'yib, ko'zguna yaqinlashadi. Peshonasiga tushib turgan sochini to'g'rilaydi. Songra deraza yoniga kelib, ko'chaga tikiladi. Shu harakatlarni mizansahna deyish mumkinmi? Yo'q, albatta! Mizansahna- sahnadan turib tomoshabinga nisbatan ko'rinish, joylashish demakdir. Mana, o'sha derazadan tikilib turgan qizning ko'zi bizga tushdi. Ammo o'zini ko'rmaganga oldi. Garchand uning harakatlarida oddiylik saqlanib qolgan bo'lsada, unda maqsad paydo bo'ldi. Ya'ni bizga chiroqliroq ko'rinishli maqsad. Buning uchun qizcha derazaga yaqinroq joydan turib, kitob varaqlaydi, o'zini ko'zguna soladi, bizni sezmagandek derazadan qayoqqadir tikilib, kimnidir qidiradi va hokazo... Demak, mizansahna xatti-harakatlarni ham shakliy ham badiiy ifoda etishdir. Har qanday so'z va harakatdan haqqoniylik, aniqlik, ifodalilik, ta'sirchanlikni talab etamiz. Bog'dagi qushlarni tinglar ekanmiz, har bir qushning qanday sayrayotganini emas, qushlarning ta'sirchan navo va nolalariga quloq tutamiz. Undan ta'sirlanamiz. Sahnada ham shunday. Sahnada biz aynan hayotiy takrorlikni emas, hayotiy harakatlar vositasida nafis holatlar, tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikning badiiy ifodasini yaratishga intilamiz. Har bir rejissor mizansahna ixtiro etishda o'ziga yaqin bo'lgan tushunchalar, imkoniyatlarga tayanadi. To'g'ri yosh rejissorlar tushuncha va xohish bilan ijro o'rtasidagi farqni ilmiy jihatdan chuqur o'rganib, o'zlashtirmagani natijasida dastlabki jarayonda xatolarga yo'l

qo'yishi tabiiydir. Biroq yillar o'tgan sayin bu sohadagi tajriba ortib, mizansahna ixtiro etishda o'z uslubi, o'z ijodiy yo'liga ega bo'lishiga ishonamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.I.Karp "Rejissura asoslari" Olimjon Salimov tarjimasini.
2. J.Mahmudov, H.Mahmudova. "Rejissura asoslari".Toshkent-2008. 115-b.64 b.
3. J.Mamatqosimov "Aktyorlik mahorati" Toshkent-2019.76 b.
4. www.ziyonet.uz
5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa